

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi magistratura mutaxassisligining
malaka talablari**

Toshkent

ЎЗР ОЎМТВ
Буйруқ № 367
" 21 " 08 2023 йил

ISHLAB CHIQILGAN:

- “Tòshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo‘yicha magistrarlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo‘yicha magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligining umumiy tavsifi.

70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar,

1.2. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi "Qishloq xo'jaligi" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarda ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi va uning tasarrufidagi tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruvi organlari, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, sug'orish tizim boshqarmalari, suv xo'jaligi qurilishi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar turli xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlarini boshqarish oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek ularni rivojlanish istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Yaylovlar melioratsiyasi, suv xo'jaligidagi gidrotexnik inshootlar, gidromeliorativ tizimlar, gidrotexnika inshootlari konstruksiyalari, daryo o'zanidagi jarayonlar, gidrotizimlar, gidrotexnik inshootlarni qurish va loyihalashtirish, zamonaviy konstruksiyalarini gidravlik hisoblash va texnologiyalari, kanallar va daryo o'zanidagi inshootlarni ilg'or texnika va texnologiyalari, gidrotexnika inshootlari ishonchliligi va xavfsizligini baholashning gidravlik asoslarini dasturiy ta'minotini ishlab chiqaruvchi korxonalar;

suv xo'jaligida hamda suv loyiha tashkilotining boshqa tarmoqlarida gidrotexnik inshootlarni gidravlik va gidrologik jarayonlarini boshqaruviga asoslangan obyektlar va korxonalarida zamonaviy ilg'or texnika va texnologiyalar, turli xil masofaviy boshqaruv asboblari va avtomatik boshqaruv tizimlari;

- suv xo'jaligi va shunga tegishli gidrotexnik inshootlar obyektlari, gidrotexnik inshootlar qurilishlarini loyihalash tashkilotlari;

-OTM va mos kasb-hunar kollejlari o'quv jarayoni;

-suv xo'jaligi boshqarmalari daryolar, tindirgichlar, magistral kanallar, gidrotexnik obyektlar, nasos stansiyalari va agregatlari;

-viloyat va tumanlar irrigatsiya tarmoqlari korxonalaridagi gidravlik va gidrologik sohalari, suv ta'minoti obyektlari;

-ilmiy-tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish muassasalari ilmiy va texnik loyihalari;

1.2.3. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- Ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- Pedagogik faoliyati;
- Tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;
- Konsalting xizmati faoliyati.

1.2.4. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari.

70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan taqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalar tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmogida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil qilish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedogogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedogogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (t-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedogogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borishi lozim.

Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

- davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- iqtisodiyot tarmoq va sohasining miqdor va sifat me'zonlari, iqtisodiy tizim va obyektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

- barqaror iqtisodiy rivojlanish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiiq etish;

- iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

- O'zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makro darajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, iqtisodiy rivojlanishga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

- budjet tizimi va budjet parametrlari, budjetdan tashqari turli jamg'armalarning shakllanishi hamda bajarilishini nazorat qilish, davlat va mahalliy resurslaridan samarali foydalanish choralarini ko'rish;

- moliya operatsiyalari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- Ishlab chiqarishni tashkil etish;

- tashkilot, korxonalar va ularning bo'limlar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- reja, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, gidromelioratsiya sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha aniq metod va usullardan foydalanishning samaradorligini oshirish va aniqlash;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash, shartnomalar tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plab, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- tarmoqlar va sohasalar bo'yicha suv xo'jaligi qurilishi korxonalar va tashkilotlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbiiq qilish.

- ilmiy va amaliy faoliyatda raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va ekotizim vositalarini rivojlantirish;

iqtisodiyot tarmoq va sohalari korxonalarida yangi innovasion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil etish.

2. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1- Umumiy kompetensiyalar

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;

- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati, undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xafvi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2- Kasbiy kompetensiyalar

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- Suv xo'jaligi va yaylovlar melioratsiyasi sohasida chuqur nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- Yaylovlar melioratsiyasi sohasida axborot texnologiyalar yordamida mustaqil ravishda yangi bilim va amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallashi hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy ma'suliyatga ega bo'lishi;

- kasbiy faoliyatda o'zlashtirilgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tavsiflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

- patent olish uchun me'yoriy ish hujjatlar tayyorlay olishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tqazishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisosligidan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikasiya: muhandis-gidrotexnik, tadqiqotchi-pedagog.

2.3.2. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	960	32
Tanlov fanlar	540	18
Ilmiy faoliyat	2100	70

2.3.3. 70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	semestri
1.00		Majburiy fanlar	960	32	
1.01	ITM5102	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	60	2	1
1.02	BISQ5104	Burg'ilash ishi va sug'orish quduqlari	120	4	1
1.03	MD5104	Meliorativ dexqonchilik	120	4	1
1.04	YM5108	Yaylovlar melioratsiyasi	240	8	1, 2
1.05	QYST 5104	Qishloq va yaylovlar suv ta'minoti	120	4	2
1.06	IMGT 5104	Irrigatsiya va melioratsiyada geoaxborot tizimlari	120	4	3
1.07	TSSY6104	Tabiiy suvlar sifatini yaxshilash	120	4	3
1.08	MFO6102	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	60	2	3
2.00		Tanlov fanlari	540	18	
2.00		<i>Tanlov fanlar (5)</i>	<i>540</i>	<i>18</i>	<i>1, 2, 3</i>
		Jami	1500	50	
		Ilmiy faoliyat	2100	70	
		Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	960	32	
		Ilmiy-pedagogik ish va ilmiy seminar	240	8	
		Ilmiy amaliyot (stajirovka)	900	30	
		Jami	2100	70	
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, gidravlika va muhandislik gidrologiyasi, suyuqlik, ekspluatatsiya, sarf, oqim energiyasi, gidravlik qarshilik, kanal, o'zan, nishablik, model, turbulentslik, oqim kinematikasi, cho'kindi, deformatsiya, yuvilish, loyqa bosish, suv ombori., ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari


ISHLAB CHIQLIGAN:

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Rektor Sh.J.Imomov

2023 yil « 10 » 07

M.O'.



KELISHILGAN

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi

Direktori Sh.Yakubov

2023 yil « 21 » 07

M.O'.



“Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari
havza boshqarmasi

boshlig'i E.Fayzilloyev

2023 yil « 12 » 07

M.O'.



“Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari
havza boshqarmasiga qarashli Meliorativ
ekspeditsiya

Boshlig'i X.Bozorov

2023 yil « 18 » 07

M.O'.



Irrigatsiya va suv muammolari
ilmiy tadqiqot institutining
Buxoro mintaqaviy markazi

Direktori Sh.Shodiyev

2023 yil « 19 » 07

M.O'.



“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar va asosiy kadr iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Buxoro sh.

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i E.Fayzulloyev, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot institutining Buxoro mintaqaviy markazi direktori Sh.Shodiyev birgalikda TIQXMMI MTUning Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70812309 – Yaylovlar melioratsiyasi magistratura mutaxassisligi

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi Farmoniga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek xalqaro talablarga asoslangan.


Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori

Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot institutining Buxoro mintaqaviy markazi direktori



Sh. Imomov

E. Fayzulloyev



Sh. Shodiyev